



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 287-296 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING ASOSIY VOSITALAR BILAN TA‘MINLANGANLIK TAHLILI



Omanov Sanjar Qurbonazar o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“Moliyaviy tahlil”
kafedrası dotsent v.b.
E-mail: academic_omonov@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalar bilan ta‘minlanganlik tahlili va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Asosiy vositalarning texnik holati, asosiy vositalardan samarali foydalanganlik darajasi tahlili o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, moliyaviy tahlil, asosiy vositalar, asosiy vositalardan samarali foydalanganlik darajasi, fond samarasi, asosiy vositalar bilan ta‘minlanganlik holati, rentabellik darajasi.

АНАЛИЗ ОБЕСПЕЧЕННОСТИ ОСНОВНЫМИ СРЕДСТВАМИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ

Аннотация: В статье рассмотрен анализ обеспеченности основными инструментами и показателями рентабельности хозяйствующих субъектов. Анализ технического состояния основных средств, изучен уровень эффективного использования основных средств.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, экономический анализ, финансовый анализ, основные средства, уровень эффективности использования основных средств, эффективность фонда, состояние обеспеченности основными средствами, уровень рентабельности.

ANALYSIS OF THE PROVISION OF FIXED ASSETS OF ECONOMIC ENTITIES

Annotation: The article examines the analysis of the provision of basic tools and profitability indicators in economic entities. Analysis of the technical condition of fixed assets, the level of effective use of fixed assets was studied.

Keywords: accounting, economic analysis, financial analysis, fixed assets, level of efficient use of fixed assets, fund efficiency, status of provision of fixed assets, level of profitability.

Kirish

Mamlakatimizdagi investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonlariga bozor islohatlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlash chora – tadbirlari ta‘siri yuqori

bo'lmoqda. Investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari orasida korxonaning xususiy mablag'lari hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi ortgan holda, davlat byudjeti va bankning markazlashgan kreditlarini hissasi keyingi yillarda qisqarib bormoqda.

Ayniqsa, asosiy kapitalga investitsiyalar oqimining qayta taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan sanoat va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat asosiy kapitalga investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibining o'zgarishiga olib kelmoqda.

Korxonalar faoliyat yuritishlari uchun ma'lum miqdorda asosiy vositalarga ega bo'ladilar. Asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish jarayonida muhim o'rin tutadi, ular jamlikda korxonada tayanadigan ishlab chiqarish – texnika bazasini tashkil etadi va korxonaning ishlab chiqarish quvvatini baholash mezoni hisoblanadi.

Asosiy vositalar deb moddiy ishlab chiqarish sohasida hamda noishlab chiqarish sohasida uzoq vaqt mobaynida (bir yildan ortiq) ishlatiladigan, shuningdek ijaraga berish uchun ham foydalaniladigan moddiy aktivlar¹ga aytiladi.

Asosiy vositalarga korxonada ko'p yil foydalaniladigan mehnat qurollari: ya'ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskunalar kiradi. Ular milliy boylikning asosiy qismini tashkil etadi. asosiy vositalar foydalanish jarayonida eskiradi va uning qiymati asta-sekinlik bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga o'tkaziladi. Shuning uchun ham asosiy vositalar dastlabki (qayta tiklash) va qoldiq qiymatlarda baholanadi.

Asosiy vositalar tahlilida korxonaning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasiga, ularning texnik holati va harakat ko'rsatkichlariga, samaradorlik ko'rsatkichlariga va holatiga baho beriladi.

Asosiy vositalarni tahlil etishda korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanishi, asosiy vositalar harakati, texnik holati, ulardan unumli foydalanish ko'rsatkichlari va ishga solinmagan imkoniyatlari aniqlanadi.

Asosiy fondlarning unumini o'rganish asosida mahsulot ishlab chiqarishda ularning samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlarni omilli tahlil qilish asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini yoki fondlar samarasini oshirish yuzasidan ichki xo'jalik imkoniyatlari mavjudligi aniqlanadi.

Asosiy vositalar tahlili bir necha yo'nalishlarda olib boriladi va asosiy vositalarni tuzilishi, dinamikasi, ulardan hamda uzoq muddatli investitsiyalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga asoslangan holda tahlil natijalariga ko'ra baho beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Albatta, xorijlik iqtisodchi olimlar Subramanyam (2020), Shadrina (2020) va Rumyansevalar (2020) hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari Pardayev (2012), Isroilov (2017), Qudratov (2012), Shog'iyosov (2009), Raximov (2020), Mavlonov (2020), Dusmuratov va Boltayev (2020) larning ilmiy-uslubiy asarlarida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahlilining uslubiy jihatlari tadqiq qilib o'rganilgan. Ya'ni, iqtisodchi olimlar tomonidan asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi

¹ 5-son BHMS.

ko'rsatkichlar va ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlilining uslubiy jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Xususan, iqtisodchi olimlar Pardayev, Xasanovva boshqalar(2012) esa "Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga: Av mahsuldorligi, Av rentabelligi, mashina va uskunalari quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti kiradi" deb ta'kidlagan holda asosiy vositalar fond mahsuldorligi tahlil qilinayotgan davrda ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahsulotning ular o'rtacha yillik qiymatiga nisbati shaklida aniqlanishini keltirib o'tishgan. Bundan ko'rinadiki, asosiy vositalar fond mahsuldorligining o'zgarishiga ishlab chiqarilgan yoki sotilgan mahsulot hajmining va asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Iqtisodchi olimlar Qudratov va Fayziyevlarning (2012) fikriga ko'ra "Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi quyidagi 3 ta ko'rsatkich bilan ifodalanadi: 1. Fond qaytimi; 2. Fond sig'imi; 3. Fond rentabelligi". Jumladan, fond qaytimi ko'rsatkichi yalpi mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati tariqasida aniqlashni tavsiya etishadi. Mazkur iqtisodchi olimlar fond qaytimining o'zgarishiga yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi va asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmining o'zgarishi bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida ko'rsatib, ularning fond qaytimi ko'rsatkichi o'zgarishiga ta'siri tahlilining uslubiy jihatlari keltirib o'tishadi. Iqtisodchi olimlar Pardayev, Isroilov va Isroilovlar (2017) asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga asosiy vositalar rentabelligi, asosiy vositalar qaytimi va asosiy vositalarning daromadliligi kabi ko'rsatkichlarni kiritishadi. Shundan, asosiy vositalarning qaytimi ko'rsatkichini sotilgan mahsulot hajmini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlashni tavsiya etishadi. Demak, bundan ko'rinadiki iqtisodchi olimlarning yondashuviga muvofiq asosiy vositalar qaytimining o'zgarishiga sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishi va asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi kabi ko'rsatkichlar bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida guruhlash, taqqoslash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya va omilli tahlil usullari qo'llanilgan. Xususan, taqqoslash usuli korxonalar faoliyatini tahlil qilishning eng asosiy usuli bo'lib, undan moliyaviy natijalar tahlilida ham foydalaniladi. Chunki taqqoslash asosida baholash uchun qo'llaniladigan har bir ko'rsatkich, har bir raqam, nazorat va prognoz xuddi shunday ko'rsatkich bilan taqqoslagandagina ahamiyatli hisoblanadi. Taqqoslash natijasida ishlab chiqarish xarajatlarini tizimli nazorat qilish va har tomonlama baholash imkoni bo'ladi. Guruhlash ayniqsa ishlab chiqarish xarajatlari tahlilida keng qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Chunki xarajat tarkibini guruhlash asosida ularning xususiyatlari, asosiy jihatlari e'tiborga olingan holda tahlil qilish, auditorlik tekshiruvlari sifatini oshishiga imkon beradi.

Tahlil va natijalar

Asosiy vositalar va korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish natijasida barcha texnika - iqtisodiy ko'rsatkichlardan yuqori darajaga erishiladi, jumladan, mahsulot hajmi mehnat unumdorligi o'sishi tufayli ortadi, uning tannarxi pasayadi. Eksport hajmini ortishi, mahsulotni raqobatbardoshligi korxonani zamonaviy ilg'or texnika bilan ta'minlanishiga, investitsiya hajmiga ko'p jihatdan bog'liq.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyot subyektlarini asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanishni o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonaning asosiy vositalarshni umumiy hajmini aniqlash va unga baho berish;
- asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va harakatini o'zgarishlariga baho berish;
- korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik holatini yaxshilash bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash va unga baho berish;
- asosiy vositalarning texnik holati, harakat ko'rsatrichlarini o'rganish va baho berish;
- asosiy vositalardan samarali foydalanganlik darajalariga baho berish;
- ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan samarali foydalanishni tahlil qilish;
- asosiy vositalar samaradorligini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik imkonoyatlarini aniqlash va hokazo.

Korxonaning asosiy vositalarini tahlil qilishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- "Buxgalteriya balansi" (1-sonli shakl);
- Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishga tushirilishiga oid ma'lumot;
- Ishlab chiqarish quvvatlari balansi;
- Ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanishiga oid hisobot va h.k.

Mahsulot hajmining ko'pashiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri korxonalarni asosiy fondlar bilan etarli darajada ta'minlanishidir.

Sanoat mahsulotini va mehnat unumdorligini beto'xtov o'sishiga ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, harakatdagi asbob-uskunalar va dastgohlarni zamonaviylashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini kiritish va ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish orqali erishiladi.

Ma'lumki, asosiy fondlar uzoq vaqt xizmat qiladi, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natura shaklini saqlab qoladi va kapital mablag'lar hisobiga to'ldirilib boradi. Yangidan barpo qilingan davlat korxonalarining asosiy fondlarini shakllantirishning manbai asosan byudjet mablag'idir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab turgan korxonalar dastgohlar va boshqa mehnat vositalari sotib oladilar, yangi ishlab chiqarish obyektlari quradilar. Buni esa, korxonalar ishlab topgan o'z mablag'lari hisobidan, bank krediti yordamida bajaradilar. Bundan tashqari amortizatsiya ajratmalari asosiy fondlarni sotib olish, ularni kapital va joriy remont qilish uchun mablag'larning muhim manbaidir.

Yirik va tobora ko'p kapital mablag'lar sarflash natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining asosiy ishlab chiqarish fondlari jadal ko'payib bormoqda.

Jamiyat ulardan juda ham oqilona foydalanishdan g'oyat manfaatdorligi tabiiydir. Chunki bu fondlarni samarali ishlatish ko'p jihatdan butun ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini belgilaydi. Ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash ishlab chiqarish vositalariga sarflangan har bir so'm hisobidan mahsulotni eng ko'p miqdorda oladigan qilib xo'jalik yuritish demakdir.

Asosiy vositalar faqat mehnat vositalari bo'lmay, balki korxonalarining moddiy boyligi hamdir. U qiymatga ega, shu bois mulk sifatida garovga qo'yish mumkin. Bundan

tashqari korxonaga tugatilayotganda qarzlarni uzish uchun o'z mablag'lari yetishmagan hollarda ushbu ko'chmas mulkni sotish orqali qarzni uzish mumkin. Asosiy vositalar mulk egasining boyligi hisoblanadi. Ulardan samarali foydalanishdan davlat va korxonaga manfaatdor. Chunki korxonaga samara natijasiga ko'ra moliyaviy natijasi ortadi. Daromad (foyda)dan esa soliq to'laydi.

1-jadval

Asosiy vositalarni guruhlariga bo'linishi

No	Asosiy vositalar	Guruhi
1.	Ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga qarab	-aktiv asosiy vositalar; -passiv asosiy vositalar;
2.	Foydalanishiga qarab	-foydalanishdagi asosiy vositalar; -zaxiradagi asosiy vositalar;
3.	Turi bo'yicha	-yer, bino inshoot, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, mebel va ofis jihozlari, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi, transport vositalari, ishchi hayvonlar, mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik o'simliklar, boshqa asosiy vositalar;
4.	Mulkiy egaligiga qarab	-o'ziga tegishli asosiy vositalar; -ijaraga olingan asosiy vositalar;
5.	Tashkil topish manbai bo'yicha	-o'z mablag'lari hisobiga; -bank kreditlari hisobiga; -boshqa manbalar hisobiga.

Asosiy vositalarni tarkibi, tuzilishi va dinamikasini o'rganishdan tahlil boshlanadi. Yil davomida asosiy vositalar tarkibida o'zgarishlar ro'y beradi. Shu bois ular tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarni atroflicha tahlil etmoq lozim.

Asosiy vositalarning har bir turini jami asosiy vositalarda tutgan ulushi uning strukturasini ifodalaydi. Struktura ishlab chiqarishning xususiyati, harakteri, ixtisoslashuv darajasi, texnologiyasiga bog'liq. Strukturani tahlil etishda asosiy vositalarni aktiv va passiv qismlarini nisbatiga e'tibor qaratiladi. Ishlab chiqarish hajmi asosiy vositalarni aktiv qismiga ko'p jihatdan bog'liq. Ularning passiv qismi esa ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqlikka ega emas, ular faqat ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi xolos.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda asosiy vositalarning aktiv qismi to'g'risida aniq bir to'xtanga kelinmagan. Bir guruh iqtisodchilar bino va inshootlardan tashqari jami asosiy vositalarni, ikkinchi guruhdagilar mashina va uskunalar, transport vositalarini aktiv qismga kiritadilar. Bino va inshootlar asosiy vositalarning passiv qismiga kirsam ham, ammo elektr quvvati, neftni qayta ishlash, gaz va boshqa sohalarda inshootlar aktiv qism tarkibiga kiradi.

Demak, asosiy vositalarning aktiv qismiga mashina va uskunalar, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi, transport vositalarini kiritish mumkin. Aktiv qismining yuqori bo'lishi fond progressivligini ifodalaydi.

Bugungi kunda mehnat qurollarini jalb etishning yangi shakllari, masalan lizing va ijaraning boshqa shakllaridan keng foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik

kodeksi"ning 587-moddasi lizing shartnomasini quyidagicha sharxlaydi: "Lizing shartnomasi bo'yicha bir taraf – lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) boshqa taraf – lizing oluvchi (ijarachi)ning topshirig'i bo'yicha uchunchi taraf – sotuvchi bilan undan lizing oluvchi uchun mol – mulkni harid qilish uchun bitimga kirishish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi".

Yil davomida asosiy vositalar tarkibida o'zgarishlar ro'y beradi. Sotib olingan va qurib bitkazilgan obyektlarni ishga tushirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish tufayli asosiy vositalar safi kengayadi.

Jismoniy va ma'naviy eskirish tufayli ularni bir qismi safdan chiqariladi.

Asosiy vositalarning atmosfera sharoitlari ta'sirida va ulardan foydalanish jarayonida uning moddiy tuzilishida ichki o'zgarishlar (zanglash, chirish) sodir bo'lganda boshlang'ich holatining yo'qolishi tufayli jismoniy eskirish ro'y beradi.

Jismoniy eskirish asosiy vositalardan foydalanish jarayonida, ulardan foydalanilmayotgan hollarda ham sodir bo'ladi.

Asosiy vositalarning ma'naviy eskirishi, ularning texnikaviy tavsifi hamda iqtisodiy samaradorligining davr talabidan orqada qolishi tufayli ro'y beradi.

Ma'naviy eskirish ikki xil bo'ladi:

- asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarishning arzonroqqa tushishi natijasida ular qiymatining kamayishi;
- yangi, ilg'or asosiy vositalarni joriy qilish va ularning texnikaviy jihatdan orqada qolishi natijasida qiymatining pasayib ketishi hisoblanadi.

Asosiy vositalar harakatini tahlili quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlashdan boshlanadi. Asosiy vositalarni:

- ishga tushirish koeffitsiyenti;
- yangilanish koeffitsiyenti;
- chiqib ketish koeffitsiyenti;
- tugatish koeffitsiyenti;
- mashina va jihozlar parkini kengaytirish koeffitsiyenti.

2-jadval

Asosiy vositalarni yaroqlilik koeffitsiyentini tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri
1. Asosiy vositalarni dastlabki qiymati	4594,7	5759,9
2. Asosiy vositalarni eskirishi	1581,0	2496,5
3. Asosiy vositalarni qoldiq qiymati (1q-2q)	3013,7	3263,4
4. Asosiy vositalarni yaroqlilik koeffitsiyenti (3q:1q).100	65,5	56,6

Yaroqlilik koeffitsiyentini jami asosiy vositalar, shu jumladan, asosiy ishlab chiqarish fondlari, asosiy vositalarning har bir turlari bo'yicha ham aniqlash mumkin. Bizning misolimizda asosiy vositalarni yaroqlilik darajasi yil boshidagi 65,5 foizdan yil oxiriga kelib 56,6 foizga qadar pasaygan.

Asosiy vositalarni eskirish koeffitsiyenti (K_e), ularning eskirish summasini asosiy vositalarni dastlabki qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$K_e = \frac{1sh \cdot 01lsatr}{1sh \cdot 010sotr}$$


3-jadval

Asosiy vositalarni eskirish koeffitsiyentini tahlili

Ko'rsatkichlar	Asosiy vositalarni dastlabki qiymati	Asosiy vositalarni eskirishi	Eskirish koeffitsiyenti, %
Yil boshi	4594,7	1581,0	34,5
Yil oxiri	5759,9	2496,5	43,4
O'zgarishi	+1165,2	+915,5	+8,9

Asosiy vositalar eskirish darajasi dinamikasini o'rganish orqali asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilanishi, asosiy vositalarni ishlatish muddatlarini baholash mumkin. Eskirish darajasi amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari, asosiy vositalar tarkibidagi o'zgarishlar, amortizatsiya normalariga bog'liq. Tahlil etilayotgan korxonada eskirish darajasi 34,5 foizdan 43,4 foizga qadar ko'tarilgan holda, uning yaroqlilik darajasi 65,5 foizdan 56,6 foizga (100-43,4)ga qadar pasaygan.

Firma, kompaniya va korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishi tufayli ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi pasayadi, foyda va rentabelligini oshishiga erishiladi.



1-chizma. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish quyidagi ko'rsatkichlar tizimi

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni kompleks tahlil etishda ko'rsatkichlar dinamikasi, rejasining bajarilishi, raqobatdagi korxonalar ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ko'rsatkichlariga baho beriladi. Bozor munosabatlari sharoitida asosiy ishlab chiqarish fondlarini har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori (fond rentabelligi) muhim ahamiyat kasb etadi.

4- jadval

Asosiy fondlardan samarali foydalanishni tahlili

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	O'tgan yili (0)	Hisobot yili (1)	O'zgarishi (+,-) Δ
----------------	------------------	-----------------	------------------	--------------------

1. Tovar mahsuloti (ming so'm hisobida)	N	8750	10865	+2115
2. Asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati (ming so'm hisobda)	F	3500	4100	+600
3. Fond samarasi (1q:2q), (so'm hisobda)	L	2,5	2,65	+0,15
4. Fond sig'imi (2q:1q)	-	0,4	0,38	-0,02

6.6-jadval ma'lumotlaridan korinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada tovar mahsuloti hajmi hisobot yili o'tgan yilga nisbatan 2115 ming so'mga oshgan.

Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. Asosiy fondlar yillik o'rtacha qiymatining o'zgarishi (ekstensiv omil). U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_F = L_0 \cdot \Delta F + \Delta L \cdot \Delta F : 2$$

$$N_F = 2,5 \cdot 600 + 600 \cdot 0,15 / 2 = 1545 \text{ ming so'm.}$$

2. Fond samarasining o'zgarishi (intensiv omil). U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_L = F_0 \cdot \Delta L + \Delta L \cdot \Delta F : 2$$

$$N_L = 3500 \cdot 0,15 + 600 \cdot 0,15 / 2 = +570 \text{ ming so'm}$$

3. Ikkala omilning yig'indisi:

$$N_F + N_L = 1545 + 570 = +2115 \text{ ming so'm.}$$

Demak, tovar mahsulot ishlab chiqarishning 2115 ming so'mga ko'payishi asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilanganligi sababli sodir bo'lgan, lekin asosiy fondlar qiymatining o'sishi natijasida mahsulot hajmi 1545 ming so'mga ko'paygan. Fond samarasi ko'rsatkichi korxonada yil oxirida 2,65 so'mdan iborat bo'lib, 0,15 so'mga oshgan. Me'yoriy hujjatlarda² mazkur koeffitsiyentni me'yori normasi belgilanmagan. Uni korxonaning mazkur ko'rsatkichi bo'yicha o'tgan yillardagi darajasiga yoki tarmoqdagi shunday ixtisoslikdagi korxonalar bilan taqqoslanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni kompleks iqtisodiy tahlilida fond qaytimini oshirish yo'llari belgilanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- uskunalardan foydalanish vaqtini uzaytirish;
- uskunalardan intensiv foydalanish;
- asosiy vositalar aktiv qismini oshirish;
- ishlatilayotgan uskunalarning ulushini oshirish.

Fond qaytimini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$F_k = U_l \cdot F_{ka}$$

bunda F_k - fond qaytimi;

U_l - jami asosiy ishlab chiqarish fondlarida aktiv qismini tutgan ulushi, %

F_{ka} - asosiy fondlar aktiv qismini fond qaytimi

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 207-sonli qarori.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari fond qaytimini bazis davridan farqiga asosiy fondlar aktiv qismi ulushini va uning fond qaytimini o'zgarishlarini ta'siri mutloq farq usuli orqali quyidagicha aniqlanadi.

$$\Delta F_k = F_k^1 - F_k^0 - \text{fond qaytimini bazis davridan farqi}$$

a) aktiv asosiy vositalar ulushi o'zgarishining ta'siri

$$\Delta F_k (\Delta U_l) = (U_l^1 - U_l^0) * F_{ka}^0$$

b) aktiv asosiy vositalar fond qaytimi o'zgarishining ta'siri

$$\Delta F_k (\Delta F_{ka}) = U_l^1 (F_k^1 - F_k^0)$$

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda asosiy fondlar iqtisodiy rivojlanish va sanoat o'sishida muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, infratuzilmani kengaytirish va xorijiy sarmoyalarni jalb etishga qaratilayotgan strategik e'tibor asosiy vositalarni samarali boshqarish muhimligini ta'kidlaydi. Biroq, eskirgan uskunalar, texnologik yangilanishlarning etarli emasligi va aktivlardan foydalanishni yaxshilash zarurati kabi muammolar takomillashtirishni ta'kidlaydi.

O'zbekistonda asosiy vositalarni tahlil qilish xalqaro buxgalteriya standartlarini qabul qilish, aktivlarni boshqarishning ilg'or tizimlarini joriy etish va barqaror investitsiya amaliyotini qo'llab-quvvatlashga bo'lgan talab ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni hal qilish orqali O'zbekistondagi korxonalar faoliyat samaradorligini oshirishi, aktivlarning ishlash muddatini uzaytirishi va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shishi mumkin. Asosiy vositalarni boshqarishga mutanosib yondashish nafaqat tashkilot faoliyatini kuchaytiradi, balki O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga ham mos keladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3946-son qarori. 2018 yil 19 sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida »gi PQ-4611-son qarori. 2020 yil 24 fevral.
3. Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy tahlil. Darslik.-T: Iqtisodiyot, 2019.
4. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. -T.:Fan va texnologiya, 2013. -476 b.
5. Shoalimov A.X., va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. -T.:Lesson-press, 2016.
6. Dusmuratov R.D., Boltayev A.S. (2020) Moliyaviy tahlil. -T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2020.
7. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. (2017) Iqtisodiy tahlil: O'quv qo'llanma. -T, 2017.
8. Qudratov T., Fayziyeva N.(2012) Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. -T.: "Vorish-nashriyoti", 2012. -188 b.
9. Raximov M.Y., Astanakulov O.T., Kalandarova N.N. (2020) Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. -T.: Iqtisod-Moliya. 2020. -410 b.

10. Subramanyam K.R. (2020) Financial statement analysis. 11th edition. New York, Mc Graw-Hill Education, 2016. -814 pages.

11. Румянсева Е.Э. (2020) Экономический анализ: Учебник и практикум. Москва: Юрайт, 2020. –381 с.

12. Шадрина Г.В. (2020) Экономический анализ: Учебник и практикум. Москва: Юрайт, 2020. –431 с.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

